Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В OTR GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Mdraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLÖM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDDIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмутходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyurov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOYIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOYIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinova	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinova	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНЕ	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH	1475
Jumayev Olimjon Sadulloevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQUISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI.....	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	



O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI

Yulduz Urinbayeva

SamISI, PhD, dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqola O'zbekistonda yangidan tashkil etilayotgan muzey turizmini rivojlantirishning konseptual yo'nalishlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Tadqiqotda mamlakatda muzey turizmini tashkil etish va uni barqaror rivojlantirish jarayonida taklif etilgan konseptual yo'nalishlarni samarali amalga oshirish uchun o'zaro bog'liq chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich joriy etish zarurligi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, muzey turizmini rivojlantirish orqali hududlarning turistik salohiyatini oshirish, milliy madaniy merosni keng targ'ib qilish hamda mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: strategiya, ekspert, gastronomiya, hudud, eksport, sub'yekt, imidj, flora, fauna, adir, mintaqa.

Abstract. This article is devoted to developing conceptual directions for the development of museum tourism newly emerging in Uzbekistan. The study substantiates the necessity of a phased implementation of interrelated measures to effectively realize the proposed conceptual approaches in organizing and ensuring the sustainable development of museum tourism. Special attention is paid to increasing the tourism potential of regions, promoting national cultural heritage, and strengthening the country's international image through the development of museum tourism.

Key words: strategy, expert, gastronomy, territory, export, subject, image, flora, fauna, foothill, region.

Аннотация. Статья посвящена разработке концептуальных направлений развития музейного туризма, формирующегося в Республике Узбекистан. В исследовании обоснована необходимость поэтапного внедрения взаимосвязанных мероприятий при реализации предложенных концептуальных направлений в процессе организации и устойчивого развития музейного туризма. Особое внимание уделено вопросам повышения туристического потенциала регионов, популяризации национального культурного наследия и укрепления международного имиджа страны за счёт развития музейного туризма.

Ключевые слова: стратегия, эксперт, гастрономия, территория, экспорт, субъект, имидж, флора, фауна, адыр, регион.

KIRISH

Prezidentimizning joriy yil 9-aprel kuni o'tkazilgan yig'ilishida turizmning yangi turlarini tashkil etish va rivojlantirish borasidagi ishlar qoniqarsiz ekani qayd etildi. Mazkur yig'ilishda 2024-yil sentyabr oyida qabul qilingan qarorga muvofiq, 2025-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekistonda turizmning yangi yo'nalishlari – sanoat, geologiya, ilmiy, harbiy va davlat boshqaruvi turizmini yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlandi. Ushbu yo'nalishlarni rivojlantirish bo'yicha barcha vazirlik va idoralarga aniq topshiriqlar berildi.

Yig'ilish davomida O'zbekistondagi sayyohlik biznesi bilan bog'liq muhim statistik ma'lumotlar keltirildi hamda mas'ullarga qator vazifalar yuklatildi. Xususan, so'nggi yillarda mamlakatda turizm eksporti hajmi 3,5 milliard AQSh dollariga yetgani, o'tgan yilda xorijiy sayyohlar oqimi 10 million kishidan oshgani qayd etildi. Ayni paytda turizmning O'zbekiston iqtisodiyotidagi ulushini 2040-yilgacha 7 foizga, eksport hajmini esa 10 milliard AQSh dollariga yetkazishni nazarda tutuvchi strategiya ishlab chiqilmoqda.



Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev mas'ul tashkilotlarga turizmni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda 2025-yilda xorijiy mamlakatlardan 15 million nafar sayyohni jalb etish vazifasini topshirdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro turizm mutaxassislari va ekspertlarining xulosalariga ko'ra, mamlakatda turizmning rivojlanganlik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri turizm turlarining xilma-xilligi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston milliy turizmida xalqaro miqyosda istiqbolli bo'lgan turizm turlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Samarqand iqtisodiyot va servis institutida yangi milliy madaniy meros turizmi, gastronomiya turizmi va ekologik turizmni tashkil etish hamda rivojlantirishning ilmiy-amaliy va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi [4-6].

Jahon turizmining rivojlanish tendensiyalarida muzey turizmining jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgani alohida e'tiborga molikdir. Vatanimizda xalqaro miqyosda e'tirof etilgan ko'plab muzeylarning mavjudligi, shuningdek, ushbu muzeylardan turizm sohasida samarali foydalanishning yuqori istiqbollari mavjudligini inobatga olgan holda, O'zbekistonda aholining ma'naviy-madaniy farovonligini oshirishda muzey turizmini tashkil etish va rivojlantirishning muhim o'rni aniqlandi. Mazkur yo'nalishda muzey turizmining uslubiy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borildi. Ushbu tadqiqotlar natijalari ilmiy nashrlarda e'lon qilinmoqda [7-12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda muzey turizmini rivojlantirishning konseptual yo'nalishlarini asoslash maqsadida umumilmiy va maxsus tadqiqot usullaridan kompleks foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv qo'llanilib, muzey turizmi milliy turizm tizimining tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi.

Nazariy tahlil usuli orqali muzey turizmi, madaniy meros turizmi va turizmni diversifikatsiya qilishga oid ilmiy qarashlar o'rganildi hamda umumlashtirildi. Qiyosiy-taqqoslash usuli yordamida xorijiy tajriba va O'zbekistondagi mavjud holat solishtirilib, muzey turizmini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlandi.

Shuningdek, normativ-huquqiy tahlil usuli asosida turizm sohasini tartibga soluvchi qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari o'rganildi. Iqtisodiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish va abstraktlashtirish usullari orqali muzey turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hamda konseptual yo'nalishlari ishlab chiqildi.

Qo'llanilgan metodologiya tadqiqot maqsadlariga erishish, ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun yetarli ilmiy asosni ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning milliy turizmida yangi turlarni tashkil etish va rivojlantirish masalasining dolzarbligiga Prezidentimiz alohida e'tibor qaratmoqda. Jumladan, 2024-yil sentabr oyida qabul qilingan qarorga muvofiq, 2025-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekistonda turizmning yangi yo'nalishlari – sanoat, geologiya, ilmiy, harbiy va davlat boshqaruvi turizmini yo'lga qo'yish belgilangan edi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish bo'yicha barcha vazirlik va idoralarga aniq topshiriqlar berilgan.

Mazkur qarorga ko'ra, Adliya vazirligi 2025-yil 1-yanvardan boshlab sayyohlar uchun hukumat binolari va inshootlariga tashrifni o'z ichiga olgan davlat boshqaruvi turizmi xizmatlarini, Mudofaa vazirligi o'q otish bo'yicha pulli xizmatlarni, Geologiya vazirligi esa konlar va tog' jinlarini portlatish jarayonlariga tashriflarni tashkil etishi lozim edi. Biroq hozirgi kunga qadar ushbu turizm yo'nalishlarining amalda joriy etilgani haqida aniq ma'lumotlar mavjud emasligi qayd etilmoqda. Bu holat mamlakatimizda milliy turizmning yangi turlarini tashkil etish va rivojlantirish masalasi hanuz dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida turizm mamlakat milliy iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytiruvchi strategik tarmoqlardan biri sifatida e'tirof etilganligi ta'kidlanadi [1].



Mazkur farmon, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da belgilangan vazifalarga muvofiq ravishda 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu konsepsiyada quyidagi muhim vazifalar belgilangan:

- Respublika ichida turizm xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan ichki turizmni rivojlantirish hamda turizm faoliyati subyektlarining faolligini rag'batlantirish;
- O'zbekiston Respublikasining turizm mahsulotlarini ichki va xalqaro bozorlarda targ'ib qilish, mamlakatning sayohat va dam olish uchun xavfsiz hudud sifatidagi imijini mustahkamlash.

Konsepsiyada belgilangan ushbu vazifalar muzey turizmini tashkil etish va rivojlantirish jarayonida qo'yilgan maqsad hamda vazifalarning bajarilishida muhim dasturiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli turizm sohasida istiqbolda ustuvor rivojlanadigan yo'nalishlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda tarixiy-madaniy turizm va ziyorat turizmi yetakchi o'rinlarni egallaydi. Shu bilan birga, jahon turizmida muzey turizmining jadal rivojlanib borayotgani inobatga olinib, O'zbekiston muzey turizmini ham istiqbolli yo'nalish sifatida rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur yo'nalishda ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Keltirilgan fikr-mulohazalar muzey turizmini mamlakatimizda tizimli va majmuali rivojlantirish aholining ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, xalqaro turizmni rivojlantirish nuqtayi nazaridan muhim va maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan ilmiy tadqiqotlar rejasiga "O'zbekistonda muzey turizmini tashkil etish va rivojlantirishning konseptual yo'nalishlari" mavzusi kiritildi. Bizning fikrimizcha, muzey turizmining konseptual yo'nalishlari mazkur turni tashkil etish va rivojlantirishning dastlabki bosqichini belgilab beradi hamda keyinchalik uning strategiyasini ishlab chiqishni osonlashtiradi. Yevropa davlatlari tajribasida ham yangi turizm turlarini rivojlantirish aynan konseptual yondashuv asosida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda muzey turizmini rivojlantirishning konseptual yo'nalishlari mamlakatimizda turizm sohasini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, "Turizm to'g'risida"gi Qonun, shuningdek, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" [2] va "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi"ga muvofiq belgilanishi lozim.

O'zbekistonda muzey turizmini tashkil etish va rivojlantirishning konseptual yo'nalishlari:

I. O'zbekistonda ichki va xalqaro muzey turizmini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish:

- muzey turizmini rivojlantirishning huquqiy-me'yoriy asoslarini yaratish;
- muzeylardan turizmga foydalanish bo'yicha nizomlarni ishlab chiqish;
- ichki muzey turizmi marshrutlari va ularning ketma-ketligini belgilash.

II. Ta'lim tizimida muzey turizmidan foydalanish yo'nalishlari:

- maktab fanlari bo'yicha ixtisoslashgan muzey ekskursiyalarini o'quv dasturlariga kiritish;
- "tabiatdagi muzeylar"ga ekskursiyalarni yo'lga qo'yish;
- mashhur ijodkorlar, san'at va davlat arboblari uy-muzeylariga ekskursiyalarni tashkil etish;
- tarixiy shaxslar va davlat arboblari muzeylariga tashriflarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish;
- oliy ta'limda mutaxassislik fanlari doirasida muzey ekskursiyalarini amaliy mashg'ulot sifatida joriy etish.

III. Xalqaro muzey turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish:


- xalqaro ahamiyatga ega muzeylarni aniqlash va ekspozitlar axborot bazasini shakllantirish;
- muzey turizmiga ixtisoslashgan turizm firmalarini tashkil etish;
- gid-ekskursiyachilar va operatorlarni tayyorlash.

IV. Ichki va xalqaro muzey turizmi uchun reklama, ekskursiya va marshrutlarni ishlab chiqish hamda ularni turizm bozoriga chiqarish.

V. Muzey turizmida ishtirok etuvchi turistlar va xizmat ko'rsatuvchi shaxslarning hayoti hamda xavfsizligini ta'minlash bo'yicha nizom va dasturlarni ishlab chiqish.

VI. Muzey turizmini rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'llarini belgilash:

- maktablarda muzey turizmini davlat mablag'lari hisobidan rivojlantirish;
- oliy ta'lim muassasalarida muzey turizmini hukumat qarorlari bilan mustahkamlash;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj va jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun muzey turizmini tashkil etishning huquqiy asoslarini belgilash.



1-rasm. O‘zbekistonda ichki va xalqaro muzey turizmlarini rivojlantirishning konseptual yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi xalqimizning ma‘naviy-ma‘rifiy taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimizning tarixiy va milliy-madaniy merosiga oid boyliklarni xalqaro miqyosda keng namoyish etish, shuningdek, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Shu bois respublikamizdagi barcha muzeylarda ichki va xalqaro muzey turizmini tashkil etish va rivojlantirish, xususan, viloyatlardagi muzeylar faoliyatida ushbu yo‘nalishni yanada kuchaytirish dolzarb vazifa sifatida belgilanmoqda.

Mazkur konseptual yo‘nalishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan topshiriqlar asosida ishlab chiqilgan [3].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda muzey turizmini tashkil etish va rivojlantirish jarayoni izchil, bosqichma-bosqich va o‘zaro bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Taklif etilgan konseptual yo‘nalishlarni samarali tatbiq etish uchun ularning bajarilish ketma-ketligini ilmiy asoslash, amaliy tadqiqotlar bilan mustahkamlash va bosqichma-bosqich joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida O‘zbekistonda xalqaro muzey turizmini tashkil etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi asoslab berildi. Bu jarayonda xalqaro miqyosda turistlar uchun jozibador bo‘lgan muzeylarni aniqlash, ulardagi eksponatlar bo‘yicha zamonaviy va ko‘p tilli axborot materiallarini tayyorlash hamda xalqaro muzey turizmi xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashgan turizm firmalarini tashkil etish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Shuningdek, xalqaro muzey turizmini rivojlantirishda malakali kadrlar tayyorlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, xalqaro standartlarga javob beradigan muzey turizmi operatorlari hamda professional gid-ekskursiyachilarni tayyorlash va ularning kasbiy salohiyatini oshirish muzey turizmi xizmatlarining sifati va raqobatbardoshligini ta‘minlashga xizmat qiladi.



Umuman olganda, muzey turizmini rivojlantirishga qaratilgan mazkur ilmiy-amaliy yondashuvlar O'zbekistonning boy madaniy merosini xalqaro miqyosda targ'ib etish, hududlarning turistik salohiyatini oshirish hamda mamlakatning turizm sohasidagi ijobiy imijini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5611-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4143188>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-261-son Qarori. <https://lex.uz/en/docs/-6040013>
4. Abdulazizov A.A. Hududlarda ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2024. 63 b.
5. Qahharov J.A. Hududiy gastronomik turizmni samarali rivojlantirish usullarini takomillashtirish: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2024. 63 b.
6. Samarov X.Q. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda milliy meros boyliklaridan foydalanishning istiqbolli yo'nalishlari: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2023. 66 b.
7. O'rinboyeva Yu.P. Muzey turizmini rivojlantirish – aholi farovonligini oshirishning muhim omili // SERVIS. Ilmiy-amaliy jurnal. Samarqand, 2024. №2(1). B. 107-111.
8. O'rinboyeva Yu.P. O'zbekistonda yangi muzey turizmini tashkil etish va rivojlantirishning maqsad va vazifalari // SERVIS. Ilmiy-amaliy jurnal. Samarqand, 2024. №2(1). B. 83-87.
9. O'rinboyeva Yu.P. Yangi O'zbekistonda muzey turizmini rivojlantirishning nazariy asoslari // Biznes–Ekspert. Toshkent, 2024. №3. B. 8-12.
10. O'rinboyeva Yu.P. Muzey turizmi va aholi turmush darajasi // Biznes–Ekspert. Toshkent, 2024. №4. B. 58-64.
11. O'rinboyeva Yu.P. Aholining ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini boyitish va yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda muzeylarning ahamiyati // Iqtisodiyot va turizm. Xalqaro ilmiy-innovatsion jurnal. Buxoro, 2024. №2(16). B. 68-78.
12. O'rinboyeva Yu.P. Iqtisodiyot tarkibiga turizmning yangi turlarini kiritishning ahamiyati // Iqtisodiyot va turizm. Xalqaro ilmiy-innovatsion jurnal. Buxoro, 2024. №3(17). B. 44-54.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
